2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 30 (1356), 2025-yil 12-fevral, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

## AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-fevral kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o‘rinbosari Maksim Oreshkin boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.**



Uchrashuv avvalida Maksim Oreshkin davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘tgan yil may oyida O‘zbekistonga amalga oshirilgan davlat tashrifi va boshqa oliy darajadagi muloqotlar davomida erishilgan kelishuvlarni tasdiqlangan “yo‘l xaritasi”ga muvofiq amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish sur’atini saqlab qolish, sanoat kooperatsiyasi va elektron tijorat loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, suv xo‘jaligi, oliy ta’lim va muhandis kadrlar tayyorlash, sun’iy intellekt, madaniy almashinuv va sport sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi.

**O‘zA**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.**

## XALQARO VA MINTAQAVIY AHAMIYATGA MOLIK MASALALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-fevral kuni Xalqaro maslahat kengashi ekspertlari Alfred Guzenbauer, Aleksandr Kvasnevskiy va Shtefan Fyuleni qabul qildi.**

Yangi O‘zbekistonda islohotlar strategiyasini amalga oshirishga ekspertlik ko‘magini ko‘rsatish hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va institutlari bilan ko‘p qirrali aloqalarni kengaytirish maqsadida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoq va sohalarini modernizatsiya qilishga texnologiyalar va investitsiyalarni jalb etish borasida amaliy hamkorlik qilish muhimligi qayd etildi.

Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo” sammitiga tayyorgarlik doirasida xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

**O‘zA**

### Nuqtayi nazar



## O‘ZBEKISTON – MALAYZIYA: MUNOSABATLARDAGI IQTISODIY DIPLOMATIYA

**O‘zbekiston keyingi yillarda yuritayotgan faol tashqi siyosati natijasida nafaqat yon qo‘shnilar, balki jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan ko‘plab mamlakatlari bilan o‘zaro strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatmoqda. Malayziya ana shunday davlatlardan biri.**

Ko‘plab ekspertlar fikricha, Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida har tomonlama rivoji hamda erishgan natijalari bilan iqtisodiyotida mo‘jiza yarata olgan. U so‘nggi 25 yil ichida agrar mamlakatdan sanoatlashgan, iqtisodiyoti eng raqobatbardosh davlatlardan biriga aylandi.

*Davomi 2-betda*

### Buyuk o‘zbek yo‘li

## YANGI O‘ZBEKISTONNING BOSH MAQSADI — INSON QADRINI YANADA YUKSALTIRISH, HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLASH

**Bugun har qachongidan jadal rivojlanayotgan jonajon yurtimizda inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan ustuvor tamoyillarni hayotga tatbiq etishda keng ko‘lamli va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.**



“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilab berilgan yuksak samarali yondashuv doirasida boshqaruv tuzilmalarini chuqur modernizatsiya qilish hamda demokratik jarayonlarda aholining faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy va konstitutsiyaviy islohotlar tufayli tub o‘zgarishlar sari dadil qadam tashlandi.

Bunday strategik rejalar asosidagi tizimli sa’y-harakatlar tufayli so‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz ikki karra o‘sdi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad uch ming dollarga yetdi. Kambag‘allik darajasi 23 foizdan 8,9 foizgacha pasaydi. Maktabgacha ta’limda qamrov 76 foizga yetkazildi, oliy ta’limda esa 40 foizdan oshdi. Bularning bari, hech shubhasiz, mehnatkash, olijanob va bag‘rikeng xalqimiz erishgan ulkan tarixiy muvaffaqiyatdir.

*Davomi 3-betda*

### Islohotlar amalda

## ASOSIY VAZIFAMIZNI UNUTIB QO‘YMASAK...



**Bir paytlar asosiy muammo qishloq xo‘jaligidan iborat edi. Ko‘pchilik rejani bajarishu aholini ishga jalb etishdan bo‘shamasdi. Hatto boshqa soha vakillari ham o‘z vazifasi qolib, dala chopig‘iga, suv tarashdan tortib, paxta terishgacha bo‘lgan yumushlarga safarbar etilardi. O‘sha vaqtlar aholi farovonligi, turmush tarzini yaxshilash kabi yechimini kutayotgan ko‘plab masalalar borasida bir muddat bo‘lsa-da, o‘ylab ko‘rilmagani ham chin. Tibbiyot, ta’lim kabi qator yo‘nalishlar oqsab qolgani sir emas.**

Bugun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangi O‘zbekistonni bunyod etish harakati boshlandi. Buning uchun, eng avvalo, aholini rozi qilishga asosiy e’tibor qaratish zarurligi belgilandi. Jumladan, har bir tizimda inson qadri ustuvorligi belgilab berildi. Ayni paytda mazkur jarayon davom etmoqda. Buni har bir hududdagi islohotlar misolida ham ko‘rish mumkin.

*Davomi 2-betda*

### Yashil makon



## BIR TUP DARAXT QADRI

4

## TOMORQADAN HAR MAVSUM 300 MILLION SO‘M DAROMAD

**Qish chillasi chiqqach, tomorqa yumushlari bilan andarmon bo‘lardik. Otam erta turib yer chopgan kishining ishida unum bo‘lishini aytib, pand-nasihatdan charchamasdi.**

**— Yigit kishi ketmon urganda yer titrab ketishi kerak, — derdi. — Kim qanday mehnat qilayotganini bilmoqchi bo‘lsang, ishlatayotgan ketmoniga qara. Yaxshi yer chopayotgan ketmon yuzasi oynadek tiniqlashib, yanada keskir bo‘lib ketadi. Ishyoqmasning ketmoni zang bosishdan nariga o‘tmaydi.**

Otamdan eshitgan bu pand-nasihatlarni bejiz yodga olayotganim yo‘q. Joriy yil 30-yanvar kuni davlatimiz rahbari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishda tomorqa va dehqonchilik yerlarida yuqori daromadli ekinlar yetishtirish bo‘yicha yangi g‘oya va tashabbuslar ilgari surilgani tomorqachilar ruhini ko‘tarib, yangi tashabbuslarga undamoqda.

Buvayda tumanidagi “Tepalik” mahalla fuqarolar yig‘ini tomorqachilari qish mavsumida ham izlanish va intilishdan to‘xtamaydi. Bu yerda issiqxonada sarxil sabzavot yetishtirish kundan kunga ommalashib boryapti. Sababi ishning ko‘zini bilganlar har qarich yerdan unumli foydalanib, mehnatidan baraka topmoqda.

*Davomi 2-betda*

Islohotlar amalda

# ASOSIY VAZIFAMIZNI UNUTIB QO‘YMASAK...

Boshlanishi 1-betda



Asrol BOYQORAYEV, Koson tumani hokimi

Xususan, tumanimizda aholi bandligini ta’minlash, munosib sharoit yaratish borasida o‘tgan bir yilda salmoqli ishlar bajarildi. Misol uchun, yil boshida 60 mingga yaqin kishining bandligini ta’minlash, jumladan, 8218 nafarini doimiy, 44 ming 558 nafarini mavsumiy va 5367 nafarini vaqtinchalik ishga jalb etish bo‘yicha reja tuzildi. Yil davomida bu reja amalda 121,9 foiz bajarildi.

“Biznesga birinchi qadam” dasturi bo‘yicha 1268 fuqaroga 7,8 milliard so‘m ajratildi. Bundan tashqari, tumandagi 435 ta kambag‘al oila tashkilotlarning 87 nafar rahbari hamda o‘rinbosarlariga biriktirildi. 200 ta kambag‘al oilaga yordam ko‘rsatilib, kambag‘allikdan chiqarildi. “Bunyodkor” MFYda yashovchi fuqaro Iroda G‘afforovaga non va non mahsulotlari ishlab chiqarish uchun 33 million so‘mlik imtiyozli kredit ajratilib, bandligi ta’minlandi. “Nurafshon” MFYdagi Anzirat Jo‘rayeva, “Darcha” MFYdagi Muhtasham Ravshanovaga ham zarur mablag‘ berilib, xonadonida daromadli ish bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratildi.

Joriy yilda 2953 ta oilani kambag‘allikdan chiqarish maqsad qilingan. Hozirda bu bo‘yicha amaliy sa’y-harakatlar boshlangan. Shuningdek, o‘tgan yili ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar ro‘yxati shakllantirilib, 211 nafarining ishga joylashtirilishiga erishildi. Kasanachilik yo‘nalishida 6 ta tadbirkorlik subyektiga 149,3 million so‘mlik subsidiya ajratilib, jami 31 fuqaroning bandligi ta’minlandi.

Keyingi yillarda tumanimizda eksport hajmini oshirish bo‘yicha ham muayyan ishlar bajarildi. Jumladan, o‘tgan yili eksportyor korxonalar tomonidan 28,8 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Shundan 20,2 million dollari sanoat tovarlari, 8,6 million dollari meva-sabzavot hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Jumladan, “Bunyodkor” va “Koson baxt tekstil” MCHJlar tomonidan ip-kalava va tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hisobidan 20,2 million dollarlik tovar Rossiya va Turkiyaga sotildi. Shuningdek, “Sanniy lend eksport” MCHJ tomonidan 8,6 million dollarlik meva-sabzavot mahsulotlari xorijlik hamkorlarga yetkazib berildi.

Bu borada marrani katta olganmiz. Tumandagi xitoylik ishbilarmonlar hamkorligida ochilgan “Qashqadaryo jingu” MCHJ, “Koson yog‘ kombinati” hamda “Bunyodkor” MCHJ korxonalari tomonidan jami 55 million dollarlik tovar eksport qilinishi rejalashtirilmoqda.

Tumanimizda qurilish sohasida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga asosan, “Do‘stlik” MFY hududidagi 27,2 gektar maydonda “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilmoqda. Ushbu hududda bosh rejaga ko‘ra, 2022-2026-yillarda 100 ta 2160 xonadonli ko‘p qavatli turar joy, 3 ta maktab, 2 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 1 ta poliklinika, mahalla binolarini qurish rejalashtirilgan.

Bugun 1 tadan 330 o‘rinli maktab, 120 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkiloti, 100 qatnovli oilaviy poliklinika binosi qad rostladi. Shuningdek, 12 ta pudratchi tashkilot tomonidan 22 ta 440 xonadonli uy qurilib, foydalanishga topshirildi. Hozir yil yakuniga qadar foydalanishga qabul qilinishi rejalashtirilgan 11 ta 268 xonadonli ko‘p qavatli uy-joyni qurish ishlari davom etmoqda.

Tumanimizda aholini ichimlik suv bilan ta’minlash eng muammoli masalalardan. Shu bois, bugun ushbu yo‘nalishdagi loyihalar ustida ishlayapmiz. Hozir aholining ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi 17,7 foizni tashkil qiladi. Qamrovni yanada oshirish uchun bosqichma-bosqich harakat qilinmoqda.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, xalqaro jamg‘armalar ishtirokida “Koson va Muborak tumanlari markazlari hamda Kitob — Shahrisabz yer osti suv konidan suv olish quvuriga yaqin bo‘lgan qishloq aholi punktlarining suv ta’minoti tizimini rekonstruksiya qilish” loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Umumiy qiymati 42,9 million dollarlik loyihani amalga oshirish davomida tumandagi 26 ta MFYda yashovchi 104 ming kishi ichimlik suv bilan ta’minlanadi. Natijada hududda toza ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi 75,9 foizni tashkil qilishi ko‘zda tutilgan.

Qaysi soha bo‘lishidan qat’i nazar, har bir ishimiz, avvalo, odamlarning yaxshi yashashi uchun sharoit yaratishdan iborat. Buning uchun barcha sa’y-harakatlarimiz, kuchimiz shunga qaratilgan.

Nuqtayi nazar

# O‘ZBEKISTON – MALAYZIYA: MUNOSABATLARDAGI IQTISODIY DIPLOMATIYA

**Malayziya O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim savdo-iqtisodiy sheriklaridan biriga aylandi. Agar 2007-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 33,3 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yil yakuni bo‘yicha 102,4 million dollarga yetdi. Shundan O‘zbekistonning eksport ulushi 6 million dollar yoki 5,8 foizni, import 96,4 million dollarni tashkil etgan. Shu tariqa eksport 1,3 barobar, import esa 1,6 barobar oshgan.**

Boshlanishi 1-betda

Hozir 34,6 milliondan ortiq aholiga ega Malayziya iqtisodiyoti rivojlanayotgan, yuqori sanoatlashgan, yuqori o‘rta daromadli davlatlar qatoriga kiradi. Nominal YIM 2024-yil yakunlari bo‘yicha 445,5 milliard dollarni tashkil etib, dunyoda 36-o‘rinni, xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha esa yanada yuqoriroqqa ko‘tarilgan holda 30-o‘rinni egallab turibdi.

Malayziya asr oxirlaridan iqtisodiyotini agrar sohadan elektronika, mikrochip hamda maishiy texnika ishlab chiqarishga yo‘naltira boshladi va shu yo‘l bilan yirik sanoatlashgan davlatga aylandi. Shu bois, Malayziya iqtisodiyoti so‘nggi yillarda ko‘plab iqtisodchi olimlar, mutaxassis hamda ekspertlarning tadqiqot obyektiga aylandi.

Albatta, Malayziya tajribasini o‘rganish, uning O‘zbekistonga xos va mos jihatlarini turli sohalarga tatbiq etish istiqbolda samarali natijalar beradi. Shuning uchun O‘zbekiston ushbu mamlakat bilan o‘zaro hamkorlikka jiddiy kirishgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda davlatlarimiz o‘rtasida iqtisodiy diplomatiyaning yanada faollashuvi natijasida o‘zaro hamkorlikdagi korxonalar soni karrasiga ortdi. O‘tgan 5-6 yil ichida axborot texnologiyalari, elektrotexnika sanoati, maishiy elektronika, mebel va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida qo‘shma korxonalar tashkil etishni o‘z ichiga olgan yirik savdo va sarmoyaviy shartnomalar imzolandi.

Natijada Malayziya O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim savdo-iqtisodiy sheriklaridan biriga aylandi. Agar 2007-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 33,3 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yil yakuni bo‘yicha 102,4 million dollarga yetdi. Shundan O‘zbekistonning eksport ulushi 6 million dollar yoki 5,8 foizni, import 96,4 million dollarni tashkil etgan. Shu tariqa eksport 1,3 barobar, import esa 1,6 barobar oshgan.

Geografik jihatdan bir-biridan nisbatan olisda joylashganiga qaramay, davlatlararo munosabatlarga yangi sur’at bag‘ishlashi mumkin bo‘lgan hamkorlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar yo‘nalishini yanada kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ishga solinmoqda.

O‘zaro hamkorlikning asosiy elementlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy hamkorlik va uning istiqbolli yo‘nalishlari ancha kengaydi. Natijada o‘zaro mahsulot ayirboshlash barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatishda davom etmoqda.

Malayziya subyektlari va O‘zbekiston ma’muriy-hududiy birliklari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun ham yaxshi imkoniyatlar bor. Xususan, 2018-yilda Xorazm viloyati delegatsiyasi Malayziyada bo‘lgan, pirovardida Malayziyaning 250 million dollardan ortiq miqdordagi sarmoyasini jalb qilish imkoniyati yaratildi.

Ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy diplomatiyaning samarali natijalari joriy yil 4-5-fevral kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Malayziyaga rasmiy tashrifi chog‘ida yanada yaqqolroq ko‘rindi. Tashrif davomida Kuala-Lumpur shahrida oliy darajadagi muzokaralar, qator ishbilarmonlik va madaniy tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, Malayziyaning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuvlar, qo‘shma biznes-forum va boshqa tadbirlar o‘tkazildi.

**Tashrif O‘zbekiston va Malayziya o‘zaro hamkorligi natijadorligi borasida muhim voqea bo‘ldi, deb bemalol aytish mumkin. Xususan, ikki davlat rahbarlari tomonidan 2025-2026-yillar o‘zaro sheriklikni innovatsion rivojlantirish davri deb e’lon qilinishi ham bejiz emas. Aynan shu davrda ikki davlat o‘rtasida istiqbolli strategik dasturlar uchun platformalar yaratiladi, imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim va sanoat kooperatsiyasi dasturi ishlab chiqiladi.**






Muzokaralar natijasida Strategik sheriklik yo‘lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot imzolandi. Shuningdek, standartlashtirish, bojxona, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sud-ekspertlik faoliyati, qurilish, korrupsiyaga qarshi kurash kabi qator yo‘nalishlarda ham muhim kelishuvlarga erishildi.

Toshkent viloyatida Malayziya kompaniyasi boshqaruvida maxsus iqtisodiy zona tashkil etilishiga kelishib olindi. Shu bilan birga, O‘zbekiston — Malayziya ishbilarmonlik hamkorligini yanada rivojlantirish hisobiga elektronika va yarimo‘tkazgichlar sanoatida uzoq muddatli hamkorlikni kengaytirish ma’qullandi.

Yana bir muhim istiqbolli yo‘nalish sifatida sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, ma’lumot markazlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish belgilab olindi. Gaz kimyosi va kimyo sanoati sohasida, jumladan, polimerlar, “yashil” vodorod va ammiak ishlab chiqarish bo‘yicha strategik loyihalarni tayyorlash ustida ishlarni yanada faollashtirishga kelishildi. Qurilish sohasining jadal rivojlanishi, o‘z navbatida, innovatsion va ekologik toza qurilish materiallariga talabni oshirmoqda. Bu yo‘nalishda ham strategik rejalar belgilandi.

Umuman olganda, tashrif O‘zbekiston va Malayziya o‘zaro hamkorligi natijadorligi borasida muhim voqea bo‘ldi, deb bemalol aytish mumkin. Xususan, ikki davlat rahbarlari tomonidan 2025-2026-yillar o‘zaro sheriklikni innovatsion rivojlantirish davri deb e’lon qilinishi ham bejiz emas. Aynan shu davrda ikki davlat o‘rtasida istiqbolli strategik dasturlar uchun platformalar yaratiladi, imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim va sanoat kooperatsiyasi dasturi ishlab chiqiladi. Bu, albatta, rasmiy Toshkent va Kuala-Lumpur milliy rivojlanish strategiyalarining bir-birini to‘ldiruvchi xususiyati bo‘lib, dunyodagi tez o‘zgarib borayotgan iqtisodiy vaziyat hamda jahon iqtisodiyoti va savdosining shakllanayotgan yangi modeli bilan birgalikda, shubhasiz, ikki davlat o‘rtasidagi yanada yaqinlashuvga xizmat qiladi.

**Nodirbek RASULOV,**
**Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori**

Xonadon xazinasi

# TOMORQADAN HAR MAVSUM 300 MILLION SO‘M DAROMAD

Boshlanishi 1-betda

Orifjon Sattorov shunday mirishkorlardan. U tomorqachilik yo‘nalishida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yib, bankdan 100 million so‘m imtiyozli kredit oldi. 5 sotix issiqxona tiklab, Janubiy Koreyaning “Qish ifori” navli qulupnay ko‘chatlarini ekdi. Kech kuzda ekilgan nihollar ayni kunda hosilga kirgan. Bu usulda mahsulot yetishtirish tomorqachi uchun “begona” soha hisoblanadi. Orifjon sarxil navlar tanlash, parvarishlash bilan bog‘liq ish jarayonlarini ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar, mirishkor tomorqachilar tajribalari asosida o‘rgandi, bilmaganini so‘radi, surishtirdi.

— Dastlab tajriba sifatida bir sotix oddiy issiqxonada qulupnay yetishtirdim, — deydi tomorqachi. — Natijasi yomon bo‘lmadi, 50 million so‘mdan ortiq daromad oldim. Bu faoliyatimni yanada rivojlantirishga turtki berdi. Mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan imtiyozli kredit olib, ish boshladim. Joriy mavsumda 5 ming tup ko‘chat parvarishladik. Mehnat va izlanishlarimiz besamar ketmadi. Hosil terimini boshlaganimizga ancha bo‘ldi. Hozir 300 million so‘mdan ortiq daromad olishni ko‘zlab turibmiz. Ish tajribamiz boshqalarnikidan bir oz ajralib turadi. Ko‘chatni yerga ekmaymiz, 1,5 metr balandlikda o‘rnatilgan maxsus qutilarda parvarishlaymiz, ko‘chat ekilgan rastalar oralig‘i bir metr. Bu nihollar rivojini nazorat qilib borish bilan birga yig‘im-terim jarayonida qo‘l keladi. Ushbu usulni bejiz qo‘llamayapmiz. Kelgusi mavsumda uch qavat qilib qulupnay ekamiz. Natijada bir mavsumda 5 ming emas, balki 15 ming tup qulupnaydan hosil olamiz, daromad salmog‘i ham uch hissa ortadi.

Issiqxona muqobil yonilg‘i yordamida isitiladi, tomchilatib sug‘orish tizimi o‘rnatilgani suv sarfi va oziqlantirish bilan bog‘liq xarajatlar miqdorini kamaytirish imkonini bermoqda.

— Tomorqa xonadon xazinasi, deb bejiz aytilmagan, — deydi Orifjon yuzasi oynadek tiniqlashib ketgan ketmon dastasiga suyanib. — Shu kunga qadar ko‘p ishlar qildim. Xorijda ishladim, chorva boqdim, oldi-sotdi bilan shug‘ullandim. Lekin ko‘chadan topganim ko‘chada qoldi. Dehqonchilik qilib, kam bo‘layotganimiz yo‘q. Ko‘plar ish tajribamiz bilan o‘rtoqlashgani kelib, yo‘l-yo‘riq so‘raydi. Ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlayman, imkon qadar yordam berishga harakat qilaman.

**— Tomorqa xonadon xazinasi, deb bejiz aytilmagan, — deydi Orifjon yuzasi oynadek tiniqlashib ketgan ketmon dastasiga suyanib. — Shu kunga qadar ko‘p ishlar qildim. Xorijda ishladim, chorva boqdim, oldi-sotdi bilan shug‘ullandim. Lekin ko‘chadan topganim ko‘chada qoldi. Dehqonchilik qilib, kam bo‘layotganimiz yo‘q. Ko‘plar ish tajribamiz bilan o‘rtoqlashgani kelib, yo‘l-yo‘riq so‘raydi. Ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlayman, imkon qadar yordam berishga harakat qilaman.**



Sherzod Qoraboyev olgan surat.

Oqqo‘rg‘on qishlog‘i bir paytlar oltindek tovlangan anjirlari bilan mashhur bo‘lib, har bir xonadonda yetishtirilgan. Endi bu ish amallari o‘zgardi. Aholi tomorqadan bir emas, ikki-uch bor hosil olmoqda. Ayni kunda 600 dan ortiq xonadon tomorqasida ertaki sholg‘om, rediska va ko‘katlar baravj rivojlanmoqda.

— Mahallamiz ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylanishida tomorqachi dehqonlarga yaratib berilgan imkoniyatlarning o‘rni beqiyos, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Asror Yigitaliyev. — O‘tgan yilning o‘zida dehqonchilik, chorvachilik, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 800 million so‘mdan ziyod imtiyozli sarmoya ajratilib, yetmishdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Ayni kunda “Temir daftar”da turgan 3 ta oilani kambag‘allikdan chiqarish va mehnat migranti sifatida ro‘yxatga olingan 32 nafar yoshni tadbirkorlik, tomorqachilik yo‘nalishlariga jalb etish, bu boradagi amaliy ish tajribalaridan ibrat olishga chaqiryapmiz. Bundan tashqari, shu yil 100 ta xonadon tomorqasida qulupnay yetishtirishni ixtisoslashtirish orqali sohani mahalla drayveriga aylantirishga alohida e’tibor qaratyapmiz.

Mahalladagi “Kelajak sari ildam” MCHJda 5 sotix yerda sabzavot ekinlari ko‘chatchiligi va issiqxona, urug‘, ko‘chat, mineral o‘g‘it va dala do‘koni, sun’iy qochirish punkti, inkubator, 4 ta motokultivator hamda 6 ta dori purkagich xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

Tumandagi boshqa mahallalarda ham tomorqadan unumli foydalanilmoqda. Hududlar ixtisoslashuvi, tuproq-iqlim sharoiti va suv ta’minoti inobatga olingan holda o‘tgan yili 2,7 ming gektar aholi tomorqasiga erta bahorgi, 2,6 ming gektarga takroriy hamda 2,1 ming gektar maydonda to‘qsonbosti ekinlar ekildi. 51 ta mahalla fuqarolar yig‘ini “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida muayyan turdagi mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashtirildi.

— Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan tomorqa xizmati korxonalari, klasterlar, qishloq xo‘jaligi kooperativlari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash uchun 2,3 milliard so‘m ajratilgan, — deydi tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi Navro‘zbek Muhammadjonzoda. — Suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan “Qum” va “Tog‘liq” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi tomorqa maydonlarini sug‘orish uchun 2 ta quduqni qazish xarajatlari qoplab berilishi hisobiga 300 dan ortiq xonadondagi 15,3 gektar tomorqada kamida ikki-uch marta ekin ekib, qo‘shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi. Hududlarda 8 ta “Tomorqa xizmati” korxonasi hamda tomorqa xizmati shaklidagi 4 ta YTT faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 2,5 ming aholi xonadoniga xizmat ko‘rsatilyapti.

Dehqonchilikning o‘ziga yarasha talab va qoidalari bor. Bu mehnat va izlanish, har bir ishga yangicha yondashuvni talab etadi.

**Rasuljon KAMOLOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# YANGI O‘ZBEKISTONNING BOSH MAQSADI — INSON QADRINI YANADA YUKSALTIRISH, HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLASH

Buyuk o‘zbek yo‘li



**Mirzo Ulug‘bek ABDUSALOMOV, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist**

Boshlanishi 1-betda

## ADOLATLI VA QONUN USTUVOR DAVLAT STRATEGIYASI

2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda mohiyat-mazmuniga ko‘ra har tomonlama pishiq-puxta o‘ylangan va umume’tirof etilgan xalqaro demokratik standartlar talablariga javob beradigan Bosh qonunimizning yangilanishi nafaqat jamiyatimiz hayotidagi noyob siyosiy, ijtimoiy-huquqiy voqea, balki ulkan olamshumul hodisa bo‘ldi. Yangilangan Konstitutsiyada mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini yanada demokratlashtirish yo‘liga asos solindi. Davlat va uning organlari ijtimoiy roli va majburiyatlari kengaytirildi, inson huquq va erkinliklarini samarali muhofaza qilish mexanizmlari yanada mustahkamlandi.

Bunday tarixiy sharoitda yangilangan Konstitutsiyamizning xalqchil tamoyil va normalarini hayotga izchil tatbiq etish bo‘yicha tizimli tadbirlar boshlab yuborildi. Jamiyat va davlatni modernizatsiya qilish, hayotning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy negizlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlash bo‘yicha ishlar faol davom ettirilmoqda.

Avvalo, 2023-yil 8-may kuni davlatimiz rahbarining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va 89 banddan iborat muhim chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Bosh qonunimizning ustuvor g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish va normalarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplarini amalga oshirish bo‘yicha beshta ekspertlik kengashi tuzildi. Bular Konstitutsiya talablarini amalga oshirishda tizimli yondashuvni ta’minlashga xizmat qilyapti.

Ikkinchidan, birgina 2024-yilning o‘zida yangilangan Konstitutsiya asosida joriy etilgan hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipi hamda o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy yangi konsepsiyasidan kelib chiqib, qator davlat organlari, xususan, Konstitutsiyaviy sud, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy organlar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari Konstitutsiyaga muvofiqlashtirildi. Ularning faoliyati yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yildi.

Uchinchidan, inson huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatiga bevosita daxldor hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2024-yil 20-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan Konstitutsiyada mustahkamlangan inson huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi, shaxsning sudlanganligi uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligiga oid kafolatlar kuchaytirildi. Xususan, qarindoshining sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish va uni o‘tash chog‘ida fuqarolar huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi belgilandi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 10-maydagi “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan muhofaza etish tizimi takomillashtirildi. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo‘lgan xotin-qizlarga himoya orderi talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmat ko‘rsatish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

Beshinchidan, 2024-yil 21-oktabrdagi “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Shuningdek, 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bular bilan bolaning Konstitutsiyamizda belgilangan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish bo‘yicha davlatning zimmasidagi majburiyatlar belgilab berildi.

Oltinchidan, Konstitutsiyada mustahkamlangan davlatning kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rish bo‘yicha majburiyati doirasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi farmoni hamda 2024-yil 4-oktabrdagi qarori bilan har bir fuqaroni o‘zi va farzandlari kelajagi uchun mas’uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ijrosi yo‘lga qo‘yildi. Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oila a’zosi uchun ijtimoiy soliq 3 yil bir foiz stavkada to‘lanishi belgilandi.

Yettinchidan, umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash amaliyotining keng yo‘lga qo‘yilishiga Oliy sud plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi muhim sharoit yaratdi.



Bunday ulug‘vor o‘zgarishlar negizida “Inson qadri uchun” g‘oyasi hamda islohotlarning “Inson — jamiyat — davlat” bosh tamoyilini Konstitutsiyamiz mazmuniga chuqur singdirib, hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishdek ezgu ishlar mujassam.

## INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLASH — OLIY MAQSAD

Konstitutsiyaviy islohotlar samarasida mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudi vakolatiga taalluqli masalalar doirasi va mexanizmlarini kengaytirish konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyat kafolatlarini yanada kuchaytirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Birinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Konstitutsiyaviy sud ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qonunlar O‘zbekiston Prezidenti tomonidan imzolanguniga qadar ularning Konstitutsiyamizga muvofiqligini aniqlashi belgilandi. Avval Konstitutsiyaviy sud faqat xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlashi nazarda tutilgan edi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyaviy sud referendumga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyamizga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradigan bo‘ldi.







Uchinchidan, Bosh qonunimizda Konstitutsiyaviy sud sudyalari qayta saylanish huquqisiz o‘n yillik muddatga saylanishi mustahkamlandi. Konstitutsiyaviy sudlar sudyasining qayta saylanish imkoniyatisiz davomiy vakolat muddati qator xorijiy konstitutsiyalarda mustahkamlangan. Masalan, Bolgariya, Fransiya, Italiya, Litva, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Sloveniya, Ukrainada 9-yillik, Gruziyada 10 yillik, Germaniya va Rossiyada esa 12-yillik muddat amal qiladi.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyati, asosan, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy organlar qarorlarining Bosh qonunimizga mosligini o‘rganish va tahlil qilish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish va boshqalardan iborat.

> **Konstitutsiyaviy sudning inson huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy sud organlari bilan, shuningdek, konstitutsiyaviy sud va unga tenglashtirilgan sud organlari manfaatlarini birlashtiruvchi mintaqaviy tashkilotlar bilan aloqalari faol yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, Yevropa, Osiyo va MDH davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari konstitutsiyaviy sudlari bilan yaqin aloqa va hamkorlik har qachongidan yuqori darajaga chiqdi.**

Mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudining 2024-yilda o‘tkazilgan sud majlislarida ko‘rilgan to‘rtta ish yuzasidan qaror va ajrimlari qabul qilindi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud tomonidan 411 ta normativ-huquqiy hujjat, shundan 109 ta qonun (10 xalqaro shartnoma), O‘zbekiston Prezidentining o‘nlab farmon va qarorlari, farmoyishlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining tegishli qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qator qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Bosh prokuror buyruqlarining Konstitutsiyamizga mosligi o‘rganilib, tahlil qilindi. Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan o‘ttizdan ortiq taklif berildi.

Keyingi yillarda an’anaga aylanib borayotgan amaliyot ham faoliyatimizda yaxshi natijalar bermoqda. O‘tgan yil nihoyasida Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili Oliy Majlis palatalariga va O‘zbekiston Prezidentiga taqdim etadigan mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborotni ikkinchi marotaba ochiq sud majlisida ko‘rib chiqdi. Axborotda qonuniylikni kuchaytirish bo‘yicha aniqlangan o‘n beshta yo‘nalishda o‘n oltita taklif va tavsiya yuborildi.

Mazkur axborot kelib tushgan murojaatlarni chuqur o‘rganish asosida, shu jumladan, Konstitutsiyaviy sudga bevosita O‘zbekiston Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar tahlili asosida tayyorlandi. Chunki fuqarolarimiz Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga kirmaydigan, ammo boshqa davlat idoralari vakolatidagi muhim konstitutsiyaviy huquqlariga oid muammolar, qarorlardan norozi yoki lozim darajada bajarilmasligi to‘g‘risida shikoyatlar qilgan. Bunday muammolar Konstitutsiyaviy sudning har yilgi axborotida muhokamaga qo‘yish yo‘li bilan hal etilmoqda. Bu kabi konstitutsiyaviy mexanizmlar tom ma’noda insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha davlatning oliy maqsadiga erishishda, xalqimizni rozi etish borasida birga harakat qilishga undamoqda.

O‘rganishlarga ko‘ra, 2024-yil davomida Konstitutsiyaviy sudga jami 1858 ta murojaat kelib tushgan. Shundan olti yuzga yaqini Konstitutsiyaviy sudga bevosita yuborilgan. Yuzdan ortiq fuqaro va yuridik shaxs vakillarining Konstitutsiyaviy sud sudya va ekspertlari shaxsiy qabuli uyushtirilgan.

Murojaatlarning tahlili ko‘rsatmoqdaki, Konstitutsiyaviy sudga murojaatlar ko‘p hollarda Konstitutsiya, qonunlar normalaridan tashqari qonunosti hujjatlar yuzasidan, shuningdek, umumiy yurisdiksiya sudlaridagi ishlar bo‘yicha qarorlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi, qonuniyligi yuzasidan kelgan.





Keyingi yillarda Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilishi ham yaxshi samara bermoqda. Jumladan, Konstitutsiyaviy sudning rasmiy saytida yo‘lga qo‘yilgan “Fuqarolarning onlayn qabuli” telegram messenjeri orqali oldindan muddatlari aniq haftalik va oylik jadvallar asosida fuqarolar bevosita sudya va ekspertlarga videoqo‘ng‘iroq qilib, onlayn tarzda murojaatlariga kerakli tushuntirishlar olmoqda. Konstitutsiyaviy sud saytida onlayn qabulning yo‘lga qo‘yilishi fuqarolarga respublikamizning istalgan hududidan bevosita murojaat qilib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga sudya, ekspert va mutaxassislardan to‘laqonli javob olishni ta’minlashga xizmat qilyapti.

Yurtimizdagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqimizni rozi qilishdir. Shu bois, har bir davlat organi o‘z zimmasidagi vazifani sidqidildan bajarishi, jamiyat rivoji, aholi yaxshi yashashi uchun zarur sharoitlarni yaratishi eng ustuvor vazifa etib belgilandi.

## MILLIY VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA UYG‘UNLIGI

Zamonaviy O‘zbekiston davlati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda ulkan yutuqlarga erishdi.

Milliy manfaatlarimizni ta’minlash yo‘lida xalqaro maydonda yuritilayotgan ochiq va faol tashqi siyosat o‘z samarasini bermoqda. Siyosiy muloqot va uchrashuvlar natijasida imzolangan hujjatlar va muvaffaqiyatli amalga oshirilgan qo‘shma loyihalar bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Shu o‘rinda Konstitutsiyaviy sudning xalqaro munosabatlari va xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy nazorat organlari bilan hamkorligiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Konstitutsiyaviy sudning inson huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy sud organlari bilan, shuningdek, konstitutsiyaviy sud va unga tenglashtirilgan sud organlari manfaatlarini birlashtiruvchi mintaqaviy tashkilotlar bilan aloqalari faol yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, Yevropa, Osiyo va MDH davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari konstitutsiyaviy sudlari bilan yaqin aloqa va hamkorlik har qachongidan yuqori darajaga chiqdi.

Bunda o‘zaro tajriba almashish, inson huquqlarini himoya qilishda konstitutsiyaviy odil sudlov mexanizmlarini takomillashtirish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, konstitutsiyaviy protsessual qonunchilikni, shuningdek, individual konstitutsiyaviy shikoyat institutini rivojlantirish kabi yo‘nalish va mavzular bo‘yicha tashkil etilayotgan xalqaro konferensiya va seminar-treninglar alohida ahamiyat kasb etyapti. Eng muhimi, bunday tadbirlar Venetsiya komissiyasi, YXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori, “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti dasturi, Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasi, Islom dunyosi konstitutsiyaviy yurisdiksiyalari konferensiyasi, Turkiy dunyo Konstitutsiyaviy sudlari konferensiyasi, Yevroosiyo konstitutsiyaviy nazorat organlari assotsiatsiyasi kabi nufuzli tashkilotlar moliyaviy ko‘magida xorijiy hamkorlar ishtirokida o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudi Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasi ta’sischilaridan biri hisoblanadi. Mazkur assotsiatsiya 2010-yil 12-iyulda Jakarta shahrida Indoneziya, Janubiy Koreya, Malayziya, Mo‘g‘uliston, Filippin, Tailand va O‘zbekiston tomonidan tashkil etilgan.

Hozirgi kunda assotsiatsiyaga Osiyodagi 20 ta davlat a’zo bo‘lgan. Uning asosiy maqsadi Osiyo mamlakatlari konstitutsiyaviy sudlari tomonidan konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish, inson huquqlarini himoya qilish, demokratiya kafolatlari, qonun ustuvorligi sohalarida tashkilot a’zolari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish va rivojlantirishdan iborat.

O‘tgan yilning 17-21-sentabr kunlari Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasining Tailandning Bangkok shahrida bo‘lib o‘tgan VI kongressida assotsiatsiyaning faoliyati va kelgusidagi rejalari haqida axborot berildi. Tadbirda 2025-2027-yillarda Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasiga raislik qilish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga o‘tishi e’lon qilindi.

Nufuzli mintaqaviy forum tomonidan ushbu mas’uliyatli vazifaning bizga ishonib topshirilishi, avvalo, Prezidentimiz yuritayotgan adolatli va oqilona siyosatning xalqaro miqyosdagi yana bir e’tirofidir. Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlarga ishonch va davlatimizning jahon miqyosida nufuzi yuksalgani, jumladan, samarali sud-huquq sohasini shakllantirish va konstitutsiyaviy odil sudlovni ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston tajribasiga qiziqish ortib borayotganining yorqin dalilidir.

O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudi vakillari keyingi uch yil davomida o‘zaro tajriba almashish va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish maqsadida Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi hamda Baden-Vyurtemberg federal yeri Konstitutsiyaviy sudi, Janubiy Koreya, Turkiya, Tailand, Indoneziya, Rossiya, Sloveniya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston Konstitutsiyaviy sudlari, Fransiyaning Strasburg shahrida joylashgan Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi, shuningdek, AQSH va Yevropaning bir qator yetakchi universitetlari va ilmiy muassasalarida konstitutsiyaviy sudlar ishini tashkil etish va konstitutsiyaviy odil sudlovni yuritish amaliyoti bilan yaqindan tanishdi.

Bunda xorijiy amaliyotga oid to‘plangan bilim va tajribalar samarasida mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada kuchaytirish, murojaatlar bilan ishlash samaradorligini yaxshilash, konstitutsiyaviy protsessual normalarni takomillashtirish, sudyalar daxlsizligi va ijtimoiy himoyasini oshirish, ish jarayoning barcha bosqichlariga zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan sud jarayonida foydalanish, idoralararo axborot almashuv tizimiga uyg‘unlashish, Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega subyektlar doirasini kengaytirish kabi yo‘nalishlardagi faoliyatimizni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.




# BIR TUP DARAXT QADRI

**Bunga ancha yil bo‘ldi. O‘shanda Jo‘ra otaga Samarqanddagi xizmatdosh o‘rtog‘i to‘yxat yuborib, to‘yga kelishni qat’iy tayinlagandi. Ikkisi qalin do‘st. Yaxshi kunida yonida turmasa, odamgarchilik qayda qoladi? Xullas, bobo qishloqdagi ikki tengqurini hamroh qilib, tongda yo‘lga chiqdi. Mehmonlar to‘yning avj pallasida kirib bordi.**

Do‘stlar armiyadagi voqealarni xotirlab, miriqib suhbatlashdi. Keksalarning gurungiga quloq tutgan yoshlarning havasi ortdi. Gap bilan bo‘lib kun peshinga og‘ganini ham sezmay qolishdi. Ketar odamga — yo‘l yaxshi. Mehmonlar uy egasidan uzr so‘rab, ortga qaytdi.

To‘yxonada unchalik sezilmagandi. Katta yo‘lga chiqilgach, yoz jaziramasining tafti holdan toydirar darajada ekani ravshan bo‘ldi. Buning ustiga asfaltdan issiq hovur ko‘tarilardi. Oltmish-yetmish chaqirim yurilgach, issiq ta’sirini ko‘rsatdi. Ayniqsa, Jo‘ra ota holsizlanib qoldi. To‘yda nafsiga erk berib, qo‘y go‘shtiga rosa to‘yib olgani endi bilinayotgandi.

Yana bir oz yurilgach, haydovchiga yo‘l chetidagi biror daraxt tagida soyalab, dam olmasa bo‘lmasligini aytishga majbur bo‘ldi. Ammo shuncha yurishsa-da, yo‘l chetida biror daraxt ko‘rinay demasdi. Haydovchi otaxonning ahvolini sezib, noiloj bir chetda to‘xtadi. Mashinaning qisqagina soyasida o‘tirgan boboning ko‘ziga bog‘idagi daraxtlari ko‘rinib ketdi. Buning ustiga shamol chang-to‘zonni har tomon surib, nafas olishga ham qo‘ymasdi. Jo‘ra ota atrofga termilib, qayrag‘ochmi, tutmi bormikan deya qidirdi. Lekin o‘sha paytlarda Chiroqchi tumani kengliklari deyilgan yo‘l atrofidan izlaganini topolmadi. Qani imkoni bo‘lsa, shu yerlarga o‘zi nihol ekib, to unib-o‘sgunicha parvarishlasa. Birgina daraxtning odam uchun shunchalik qadrli ekanini hech o‘ylab ko‘rmagan ekan. Bugun bir qarich soya bir qultum suvdan-da aziz bo‘ldi...

Har safar shu yo‘ldan Toshkent yoki Samarqand taraflarga o‘tadigan bo‘lsa, otaxonning yodiga o‘sha voqea tushaveradi. Bir marta erta bahorda besh-oltita nihol olib kelib, yo‘l chetiga ekib ketdi. Keyinchalik boshqalar ham ekdi. Ko‘chatlarning ayrimlari ko‘kardi. Lekin qarov bo‘lmagani bois, ko‘pi qurib qoldi. Bugun ham nabirasining mashinasida Toshkentga qarab yo‘lga chiqdi. Hozir Ko‘kdala tumaniga qarashli o‘sha hududga yaqinlasharkan, yo‘l chetida to‘planib turgan odamlarni ko‘rib hayron bo‘ldi. Ko‘z nuri xiralashib qolgani bois, u yerdagilarning nima bilan bandligini anglolmadi. Nabirasidan so‘radi:

— Bolam, anavilar nima qilyapti?

— Bobo, bu yerda daraxt ekilyapti. Ana, ko‘pi ko‘chat olib kelyapti. Ba’zilari chuqur qaziyapti.

— Shu tarafga hayda, bolam. Katta elning hashariga hissa qo‘shmay ketib bo‘lmaydi.







— E, bizga shu kerakmi? Yo‘ldan qolib nima qilamiz? — deya nabirasi norozilik bildirdi.

— Bugun bo‘lmasa, ertaga kerak bo‘ladi. Bir kuni foydasi tekkanda aytasan, bolam. Undan ko‘ra hayda ulovingni. Biz ham ularga qo‘shilib, hech bo‘lmasa, ikki tup nihol ekib ketamiz. Buning savobi katta.

Ota mashinadan tushib, odamlarga qo‘shildi. Ular bilan salomlashib, salomatlik tiladi. Qo‘liga ko‘chat olib, chetda turgan nabirasini imladi. Oldindan kovlangan chuqurga niholni qo‘yib, tuproq tortdi. Ko‘zida bir oz yosh bo‘lsa-da, tili duoda edi. Yoshi saksondan oshib qolgan otaning harakati hech kimni hayratlantirmadi. Ishlayotgan yoshlarga dalda bo‘ldi. Chunki hashar — azaliy urf. Unga barcha birdek bosh qo‘shadi. Tanishmi-notanishmi, hashar ustidan chiqib qolsa, “Hech bo‘lmasa, bir qo‘lim tegsin”, deya yordam berib o‘tadi. Ayniqsa, Jo‘ra bobo kabi keksalar bunday jamoaviy ishlarda ko‘p qatnashgan. Shu bois, ko‘z yumib o‘tib ketolmasligi aniq edi.

O‘sha kuni aslida Ko‘kdala tumanidagi katta yo‘l yoqasida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida katta hashar tashkil etilgandi. Qashqadaryo viloyati hokimligi tashabbusi bilan Ko‘kdala — Qarshi yo‘lining ikki tomonida 60 ming tup mevali va manzarali daraxt ko‘chati ekish rejalashtirilgandi. Bobo-nabira aynan shu ishlarning boshlanish qismiga guvoh bo‘lib turgandi.

Mazkur ekologik tadbirda viloyat rahbari boshchiligidagi sektor rahbarlari, nuroniylar, yoshlar, “mahalla yettiligi” va keng jamoatchilik vakillari birdek hissa qo‘shayotgandi. Kimdir suv keltirgan, yana kimdir tuproq tashlagan. Biri niholni ushlab turish bilan band. Xullas, bekor turganni ko‘rmaysiz. Hammaning kayfiyati a’lo. Axir bunday savobli ishga bosh qo‘shish har kimga ham nasib etavermaydi.

Hasharchilar bir yoqadan bosh chiqarib, daraxt ko‘chatlarini yerga qadab, kelajak avlodga yashil va barqaror muhit yaratishga hissa qo‘shdi. Muhimi, shu kunning o‘zida hududda ekilayotgan daraxt ko‘chatlarini tomchilatib sug‘orish tizimi ham yo‘lga qo‘yildi.

Qashqadaryo viloyati hokimligi mutasaddilarining ma’lum qilishicha, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2024-yil bahor va kuz mavsumida 16 million tupdan ziyod daraxt va buta ko‘chati ekilgan.

**Ekologik tadbirlarni ko‘paytirish, birinchi navbatda, daraxtzorlarni kengaytirish ishlarini 2025-yilda yanada jadallashtirish belgilangan. Rejaga ko‘ra, viloyatda bahor mavsumida 10 million 74 ming tup va kuz mavsumida 6 million 130 ming tup daraxt va buta ko‘chatini ekish belgilangan. “Mening bog‘im” loyihasi doirasida esa 16 ta tuman va shaharda bog‘ tashkil etish uchun yer maydonlari tanlab olindi.**

Shu paytgacha vohaning ayrim joylarida o‘tqazilgan nihollar bir yil o‘tmasdan qurib qolardi. Mana shunday holatlarni inobatga olib, keyingi mavsumda ko‘chatlarning iqlimga mos, chidamliligiga e’tibor qaratildi. Bu borada Qarshi davlat universitetining dendrolog olimlari tavsiyasiga asosan 16 turdagi daraxt va buta ko‘chatlari tanlab olindi. Yapon saforasi, shumtol, qayrag‘och, pavlovniya, zarang, akatsiya, chinor, tut, jiyda shular jumlasidan.

— Avvallari daraxt ekardik, lekin uni sug‘orish masalasiga uncha e’tibor qaratmas edik, — deydi hasharda ishtirok etgan mahalla faollaridan Xudoyqul Diyorov. — Bu yil, birinchi navbatda, shunga e’tibor qaratilgani yaxshi bo‘ldi. Hozirning o‘zida kerakli moslamalar o‘rnatilib, katta hovuz qilinmoqda. Shu joydan tomchilatish uskunalari orqali suv tarqatiladi. Ayniqsa, yoz mavsumida nihollarga suv zarur. Eng muhimi, ekilgan har bir ko‘chat ertaga bo‘y ko‘rsatishiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Nasib etsa, ikki-uch yilda yo‘lning ikki chetida chiroyli manzara hosil bo‘ladi.

Viloyat bo‘ylab daraxtzorlarni ko‘paytirishga katta e’tibor qaratilayotganini qilinayotgan ishlar misolida ham ko‘rish mumkin. Xususan, o‘tgan yilning o‘zida yangi ekilgan ko‘chatlarni sug‘orish uchun 436 ta texnika jalb etildi. 24 kilometrli sug‘orish tizimi tortildi hamda 15 ta yangi suv qudug‘i qazildi. Kafolatlangan suv ta’minotini ta’minlash uchun yirik hajmli suv idishlari o‘rnatilib, tomchilatib sug‘orish tarmoqlari tortildi.

Misol uchun, Qamashi tumanida 8 ta ko‘chma hovuz o‘rnatilib, 20 ming tup, Qarshi — G‘uzor avtomobil yo‘li yaqinida 24 ta beton hovuz bunyod etilib, tomchilatish orqali 14 ming tupdan ortiq ko‘chatni sug‘orish yo‘lga qo‘yildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2024-yilning bahor va kuz mavsumida ijtimoiy soha tashkilotlariga 400 mingga yaqin manzarali, mevali daraxt hamda buta ko‘chati bepul yetkazib berildi.

Shuningdek, loyiha jarayonida “Shahrisabz Agropilla” MCHJ tomonidan 22 ming tup, “O‘g‘in iftixori” ishlab chiqarish kooperativi tomonidan 10 ming tup va “Beshkent — agro klaster” MCHJ tomonidan 40 ming tup mevali daraxt ko‘chati ekilib, bog‘lar barpo qilindi.

Sohadagi yangiliklardan yana biri, Qarshi tumani “Hilol” MFYdagi 2-kasb-hunar maktabi hududidagi 1,5 gektar maydonda “Dendrologiya bog‘i” tashkil etishga ruxsatnoma berildi. Natijada kelgusida ushbu bog‘da “in-vitro” usulida daraxt ko‘chatlari yetishtiriladi.

Muborak, Mirishkor hamda Nishon tumanlarining asosiy qismi cho‘l, qir va adirliklardan iborat. Shu paytgacha iqlim sharoitini hisobga olib, sho‘r va suvsizlikka chidamli o‘simlik bog‘larini barpo etish dolzarb bo‘lib kelayotgan edi. Endi bunga yechim topilmoqda. Hozir Muborak tumanida namuna tariqasida yer tanlandi va bu boqqa suvsizlikka chidamli daraxt ko‘chatlari ekiladigan bo‘ldi.

Ekologik tadbirlarni ko‘paytirish, birinchi navbatda, daraxtzorlarni kengaytirish ishlarini 2025-yilda yanada jadallashtirish belgilangan. Rejaga ko‘ra, viloyatda bahor mavsumida 10 million 74 ming tup va kuz mavsumida 6 million 130 ming tup daraxt va buta ko‘chatini ekish belgilangan. “Mening bog‘im” loyihasi doirasida esa 16 ta tuman va shaharda bog‘ tashkil etish uchun yer maydonlari tanlab olindi.

Ayni kunlarga kelib, vohada iqlim bir oz issiq kelgani bois, 2 million tup manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari ekilganini aytib o‘tish mumkin. Bundan tashqari, shu kunlarda Qarshi — Ko‘kdala yo‘li atrofida ham 40 ming tup ko‘chat ekildi.

Hududlarni yashil makonga aylantirish harakatida barcha ishtirok etmoqda. Atrof-muhitni asrash, tabiatga yaxshi munosabatda bo‘lish, yashillik ortidan havo musaffoligiga erishish mumkinligini yoshu qari birdek anglab yetmoqda. Bu esa tabiat muvozanatini saqlash uchun muhim.

**Akbar RAHMONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**




**Texnologik taraqqiyot ko‘plab sohalarda insoniyatga qulaylik yaratmoqda. Xususan, bank tizimida ham bu borada ijobiy natijalar qayd etilyapti. Birgina kredit tizimi bunga misol bo‘la oladi. Oldinlari turnaqator bo‘lib bank eshigida sarg‘aygan, hujjatbozlik ortidan aksariyat vaqtini yo‘lga sarflagan yurtdoshlarimiz endi bir necha daqiqada telefon ilovalari orqali kredit olmoqda. Bu imkoniyat ko‘plab insonlarning og‘irini yengil qilayotgani, maqsadli ishlatilsa, kosasi oqarib, ro‘zg‘origa baraka kirayotgani ham ayni haqiqat.**

Bugun aksariyatimiz kredit to‘g‘risida o‘ziga xos qarashga, muayyan ma’noda tajribaga egamiz. Hech bo‘lmaganda yon-atrofimizdagilarning bu boradagi mashmashasidan boxabarmiz. Afsuski, keyingi vaqtlarda kredit olishdagi qulayliklar bilan birga bu tizimdagi firibgarliklar soni ham oshib bormoqda. Qaysidir mansabdorning qo‘li ostidagilar nomiga kredit rasmiylashtirib, pulni yeb yuborgani yoxud telefon orqali o‘zini bank xodimi sifatida tanishtirib, odamlarni talayotganlar ko‘payib borayotgani achinarli hol.

Yaqinda qishloqdagi jo‘ram qo‘ng‘iroq qilib qoldi. Aytgancha, u o‘qishga qiziqmadi. Otasidan qolgan mol-holni ko‘paytirib, ro‘zg‘or tebratardi. Bu orada fermer xo‘jaligiga ishga kirgani haqida ham eshitdim. Xullas, sodda jo‘ramga ko‘p qatori “bank xodimlari” qo‘ng‘iroq qilib, u bilan videochatda gaplashishga ko‘ndirgan. Muloqot asnosida jo‘ramning qiyofasi skanerlanib, identifikatsiyalangan va shu asosda ma’lumotlari shakllantirilib, nomiga kredit rasmiylashtirib olingan. Bundan, tabiiyki, anoyi jo‘ramning xabari bo‘lmagan. Oqibatda ikki oydan so‘ng uyiga Majburiy ijro byurosidan xat borgan. Jo‘ram qo‘rasidagi molini bozorga sotib, kreditidan qutuldi. Shunday qilib, firibgarlar uni umrida qo‘liga ushlab ko‘rmagan pulga kuydirdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, birgina 2024-yilda firibgarlik yo‘li bilan fuqarolar nomiga onlayn kredit ajratish bo‘yicha 500 ga yaqin holat aniqlangan. Bu jarayonda jabrlanuvchilarga qariyb 15 milliard so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilgan.

Biroq shuncha ogohlantirishlarga qaramay, firibgarlar tuzog‘iga tushayotganlar bor. Xo‘sh, bunday vaziyatda nima qilish kerak? Mas’ullar qanday yechimlarni taklif qilmoqda?

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) axborot xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda fuqarolardan iqtisodiy huquqqa oid 6000 dan ortiq murojaat kelib tushgan. Ularning 9 foizi firibgarlik holatlari bilan bog‘liq. Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari asosida turli tijorat banklaridan kredit olishi sezilarli darajada ko‘paygan. 2023-yilda shunday murojaatlar soni 110 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu raqam 42 foiz oshgan.

Murojaatlarning 60 foizida o‘zini to‘lov tizimi yoki Markaziy bank xodimi sifatida tanishtirgan shaxslar fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlaridan foydalangan holda onlayn kreditlar rasmiylashtirgan. Ayrim holatlarda esa bir shaxs nomiga 5-6 ta tijorat bankidan kreditlar olingan.

— Firibgarlar tuzog‘iga, asosan, hech qayerdan onlayn kredit olmaganlar tushmoqda. So‘nggi vaqtlarda onlayn kredit olish borasida uchrayotgan firibgarliklar ko‘payib borishi ortidan 2024-yil 1-noyabrdan 2025-yil 1-aprelga qadar vaqtinchalik tartib joriy qilindi, — deydi Markaziy bankning kiberxavfsizlik markazi mutaxassisi Xurshid Xudoyorov. — Endi kredit tashkilotlari fuqaro kredit olish uchun ariza yuborganidan so‘ng uning kredit byurolari ma’lumotlar bazasidagi kredit tarixini 2 bosqichda — ariza tushganidan so‘ng va kredit mablag‘i ajratilishidan oldin tekshiruvdan o‘tkazadi. Ushbu talabning o‘rnatilishi kredit olish bo‘yicha ariza fuqaroning o‘zi tomonidan berilganini aniqlash va uning shaxsiga yana bir bor oydinlik kiritish imkonini beradi.

Mutaxassisning ta’kidlashicha, bu cheklov yana bir necha bosqichdan iborat. Pul ajratilganidan so‘ng P2P amaliyoti (kartadan kartaga o‘tkazmalar), jismoniy shaxslar hisobvaraqlari va elektron hamyonga o‘tkazmalar, mobil aloqa operatorlari orqali telefon raqami hisobini to‘ldirish, chet elga pul o‘tkazmalari hamda onlayn valyuta ayirboshlash operatsiyalariga 48 soat davomida cheklov o‘rnatiladi. Agar fuqaro bank bilan bog‘lanib, shaxsini tasdiqlasa, pul olishi mumkin. Bu cheklov barcha tijorat banklari tomonidan joriy etilgan. Ammo ushbu tartib faqat birinchi marta identifikatsiyadan o‘tayotganlar uchun xizmat qilishini hisobga olsak, bu onlayn kredit olish bilan bog‘liq firibgarlik holatlariga to‘liq barham berolmasligi mumkin.

Endi jismoniy shaxs o‘zining ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimi rasmiylashtirilishining oldini olish uchun kredit bitimini tuzishni kredit byurosiga ariza kiritish orqali taqiqlashi mumkin. Kredit bitimi tuzilishini taqiqlash yoki bunday taqiqni olib tashlash to‘g‘risidagi ariza olingan paytdan boshlab kredit byurosi darhol uni reyestrga, ya’ni kredit bitimi tuzilishi taqiqlangan jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan va kredit byurolari tomonidan yuritiladigan yagona ma’lumotlar bazasiga kiritadi.

— Kredit bitimini tuzish taqiqlangan shaxslarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan reyestrini yuritish tartibini Markaziy bank belgilaydi, — deydi Markaziy bankning yuridik departamenti direktori o‘rinbosari Bahodir Ismoilov. — Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiqni olib tashlash uchun jismoniy shaxslar davlat xizmatlarining Yagona interaktiv portali, davlat xizmatlari markazlari hamda kredit byurolari orqali yozma yoki elektron ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiqni olib tashlash ixtiyoriy bo‘lib, bunda mazkur xizmatlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bepul amalga oshiriladi.

Bugun O‘zbekistonda kredit axboroti bilan ta’minlaydigan 2 ta kredit byurosi mavjud. Bular — “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi hamda “CRIF kredit axborot xizmatlari” MCHJ. “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi tomonidan KATM ilovasi ishga tushirilgan bo‘lib, unda har bir fuqaro o‘zining kredit tarixi bilan tanishishi mumkin. Ma’lumki, kredit ajratayotgan moliyaviy tashkilot kredit ma’lumotlari bilan tanishmay turib kredit ajrata olmaydi. Ushbu ilova orqali onlayn firibgarliklardan himoyalovchi “Freeze” dasturini ishga tushirish imkoni mavjud. Bunda sizning kredit tarixingiz bilan tanishmoqchi bo‘lgan moliyaviy tashkilotga kredit byurolari tomonidan taqiq qo‘yiladi.

— Yaqin kelajakda muqobil skoring hisoboti, yuridik shaxslarning reytingi, kredit axboroti to‘liqligini tekshiruvchi avtomatlashtirilgan mantiqiy nazorat va monitoring xizmati, ma’lumotlar bazasini bank bo‘lmagan tashkilotlar ma’lumotlari bilan kengaytirish, o‘quv markazini tashkil etish hamda “Asoki” tizimini modernizatsiya qilgan holda yangi “soft core” tizimini ishlab chiqish kabilarni yo‘lga qo‘ymoqchimiz, — deydi “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi ijrochi direktori Sanjar Maqsudov.

Shuningdek, o‘zbekistonliklarga o‘ziga kredit ajratilishini taqiqlash huquqini beruvchi qonun loyihasi ham muhokamaga qo‘yilgan. Ushbu xizmat kredit olish yoki mijozning pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini cheklashga mo‘ljallangan. Chunki kredit axboroti bilan tanishmasdan kredit beradigan moliyaviy tashkilotlar ham mavjud. Agar “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi qonunga aholini kreditlash, nomiga kreditlar berish va ushbu kredit mablag‘larini masofadan turib o‘g‘irlashga oid firibgarlik jinoyatlaridan himoya qilish maqsadida o‘zgartishlar kuchga kirsa, kredit bergan tashkilot javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Taassufki, aldov ortidan pul topib, bolalarini boqayotgan firibgarlar o‘zga yurt vakillari emas, balki imonu insofni birinchi o‘ringa qo‘yadigan, birovning haqini yeyishdan qo‘rqadigan, yolg‘on gapirishdan iymanadigan xalqimizning nomini ko‘tarib yuribdi.

Axborot texnologiyalari rivojlangani sari aldov va firibgarlikning yangi usullari o‘ylab topilaveradi. Bu kabi holatlarning ommalashuviga qarshi aholining iqtisodiy bilimini rivojlantirish, mediasavodxonligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Sardor TOLLIBOYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# TOQATSIZLIK ILLATI: AYRIM YOSHLAR ILM OLISH VA KASB EGALLASHGA QIYNALMOQDA

Mulohaza

**Jiyanim oilaviy sharoit tufayli migrant sifatida xorijga ishga ketishga majbur bo‘lgan edi. Bir-ikki yilda muammolardan qutulib, iqtisodiy ahvolini o‘nglab olishga erishdi. Internet orqali yozishmalarda ko‘p bora vatanga qaytish, biror ishga joylashib, shu yerda “palak yozish” niyati borligini aytar, mendan bu borada maslahatlar so‘rardi.**



**Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Men unga mamlakatimizda yoshlarning ta’limi, kasb tanlash masalalariga so‘nggi yillarda e’tibor har qachongidan ham kuchaygani, hatto monomarkazlar tashkil etilib, odamlarga bepul kasb o‘rgatilayotgani, ehtiyojmand oilalar farzandlariga o‘qish uchun to‘lovda imtiyozlar qo‘llanilayotganini aytardim. Jiyanim bu o‘zgarishlardan xursand bo‘lsa-da, uning qalbida muvaffaqiyatga tezroq erishish istagi ustunlik qilayotgani sezilib turardi.

Nazarimizda, bugungi hayot shiddati ko‘pchiligimizni sabrsiz qilib qo‘ymoqda. Xo‘sh, nega? Bu savolga javob topish maqsadida internet orqali psixologlar fikri bilan qiziqdik. Sabrsizlikning asosiy omillaridan biri tanlov va imkoniyatlar ko‘pligidir, degan fikr e’tiborimizni tortdi. Darhaqiqat, biz bugun tanlovlar nihoyatda keng bo‘lgan davrda yashayapmiz.

Yeydigan taomimizdan tortib, haydayotgan avtomobillarimizgacha keng tanlov qila olamiz. Shug‘ullanadigan kasbimiz ham, ta’lim olmoqchi bo‘lgan oliygohlarimiz ham turfa. Bu esa o‘z-o‘zidan nazarimizni to‘yintirib qo‘ymoqda. Biroq ilm-ma’rifat va kasb tanlash borasida bu sabrsizligu to‘yinganlik aks ta’sir etishi mumkin.

Buyuk mutafakkir bobolarning tarjimayi holiga qarasak, ular chorak asrlab ustozlar etagini mahkam tutganini ko‘ramiz. O‘zi ustoz maqomiga erishish uchun esa umrining yarmidan ko‘prog‘ini bag‘ishlagan. Shundan keyin ham o‘ziga nisbatan ustoz deya nisbat berishlaridan qimtingan. Bularning barchasi, shubhasiz, ilm-ma’rifatning yuki naqadar zalvorli ekanidan dalolat. Bugun-chi, ilm olishga, hunar egallashga munosabatimiz qanday?

Ko‘cha-ko‘yda yursangiz, har qadamda “Falon tilni 6 oyda o‘rgatamiz”, “Falon kasbni 3 oyda to‘liq o‘zlashtirasiz” kabi reklamalarga ko‘zingiz tushadi. Qizig‘i, bunday targ‘ibot usullari ko‘pdan buyon mavjud. Nega? Sababi ularga talab bor-da.

Bir-ikki yil ilgari yaqin do‘stim Yevropaga o‘qishga ketish niyatidaligini, buning uchun til o‘rganishi lozimligini aytib, mukammal o‘zlashtirish uchun qancha vaqt ketishini so‘ragandi. Tabiiyki, men bir yarim yoki ikki yil yetarli bo‘lishini aytgandim. Buncha vaqtga do‘stim hafsala qilmadi, tez o‘rganib olish yo‘llarini izladi, biroq uddasidan chiqmadi. Bugun u turli-tuman yollanma ishlarda ishlayapti. O‘zimcha o‘ylayman, agar do‘stim o‘shanda til o‘rganishni boshlaganda hozir ijtimoiy ahvoli butunlay boshqacha bo‘larmidi?! Aslini olganda, ilm olish, kasb o‘rganish masalasida ko‘pchiligimiz shu do‘stimga o‘xshab ketamiz.



> **Toqatsizlik aksariyat odamlarning tabiatiga singib ketgan. Bu, ayniqsa, yosh avlod dunyoqarashida ustunlik qiladi: hamma narsaga, xususan, mo‘maygina boylikka tezroq erishishni istaydi. Bu esa ularni ayrim qora niyatli kimsalar o‘ljasiga aylantirib qo‘yayotir. Bukmekerlik kompaniyalari bozori bunchalik chaqqonligi ham aslida shundan. Aynan ushbu illatlarning ortidan nechalab yosh yigit-qizlarning aziz umri behuda sovrilayotganini eshitib, ko‘rib yuribmiz.**

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

Toqatsizlik aksariyat odamlarning tabiatiga singib ketgan. Bu, ayniqsa, yosh avlod dunyoqarashida ustunlik qiladi: hamma narsaga, xususan, mo‘maygina boylikka tezroq erishishni istaydi. Bu esa ularni ayrim qora niyatli kimsalar o‘ljasiga aylantirib qo‘yayotir. Bukmekerlik kompaniyalari bozori bunchalik chaqqonligi ham aslida shundan. Aynan ushbu illatlarning ortidan nechalab yosh yigit-qizlarning aziz umri behuda sovrilayotganini eshitib, ko‘rib yuribmiz.

Zamonaviy dunyoda kriptovalyuta sohasi tobora ommalashib boryapti. Tashqaridan ayni soha ham tavakkalchilikka asoslangandek ko‘rinsa-da, ko‘plab mutaxassislar iqtisodiy tarmoqning kelajagini aynan kriptovalyutalar bilan bog‘lamoqda. Bu esa ularning qiymati borgan sari barqarorlashishini anglatadi. Ammo bugungi kunda kriptovalyutalar tezkor o‘suvchandir. Yangi va ishonchli loyihalarga qiziqish kuchliligi tufayli ularning narxi birdaniga ko‘tarilishi, natijada tikilgan sarmoya tez fursatda bir necha barobar ortishi mumkinligi yoshlarni o‘ziga ohanrabodek jalb qilmoqda. Ammo bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun ham yetarlicha bilim kerak. Yon-atrofimizda ana shu bilimlarni egallashga-da hafsala topa olmay, sarmoyasidan ayrilayotgan yoshlar soni rasmiy e’lon qilinmagan bo‘lsa-da, juda ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Bir gap bor: qiyinchilik bilan erishilgan narsaning qadr-qimmati yuqori bo‘ladi. Bu — haqiqat. Misol uchun, o‘rtacha 10 yil o‘qib, shifokor bo‘lgan odam bilan 3-4 kunda o‘rganib, ofitsiantlik qilayotgan odamning o‘z kasbiga munosabati tubdan farq qiladi. Ofitsiantga hozirgisidan daromadliroq ish taklif qilsangiz, u osongina kasbini o‘zgartirishi ehtimoli katta, biroq shifokor bu haqda o‘ylab ko‘rishga ham og‘rinadi.

Toqatsizlik yoshlarning ilm olish va kasb tanlash jarayonlariga tobora singib borayotgani jamiyat uchun xavotirli signal, aslida. Xo‘sh, bu borada qanday yo‘l tutmoq kerak? Aksar ta’lim mutaxassislari maktabgacha va maktab ta’limi bolalarga kasb tanlash masalasini targ‘ib qilmasligini, faqatgina ulardagi umumiy bilimlarni rivojlantirish bilan shug‘ullanishi lozimligini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Ularning nuqtayi nazariga ko‘ra, yetarli bilimga ega bolada tafakkur rivojlanib, kasb tanlash masalasini mustaqil o‘zi hal qila oladi. Aksariyati esa bolalarning bog‘cha yoshidanoq qiziqishlarini aniqlash, ularni shu qiziqish bo‘yicha tarbiyalash kerakligiga ishonadi. Sizningcha, qaysi usul o‘zini oqlaydi?

Maqolani tayyorlash jarayonida qiziq raqamlarga duch keldik. Yevropada har yili o‘rtacha 7-12 foiz aholi kasbini o‘zgartirar ekan. Mehnat munosabatlari samarali yo‘lga qo‘yilgan deya e’tirof etiladigan AQSHda esa bu ko‘rsatkich taxminan 10 foiz. Tahlilchilar fikricha, bu kasb o‘zgartirishlarning bir qismi moliyaviy vaziyat tufayli ro‘y bersa, bir qismi sobiq kasbida o‘zini noqulay his etish natijasidir. Mintaqamizda ham statistik raqamlarda qayd etilmasa-da, kasb yoki soha o‘zgartirishlar bilan bog‘liq vaziyatlar uchrab turishi sir emas.

Jamiyatimizda aksar ota-onalar farzandlari uchun kasb tanlab berishi odatga aylangan. Ko‘pchiligimiz bolalikda ota-onalarimizdan “Sen harbiy bo‘lasan”, “Sen shifokor bo‘lasan” kabi gap-so‘zlarni eshitganmiz. Natijada tafakkurimizda “Men baribir falon kasbning egasi bo‘larkanman”, degan tushuncha shakllanib qolgani-yu buning uchun nima qilish lozimligini bilmay yurganlarimiz ham bor. Ulg‘ayib, ishlash lozim bo‘lgan yoshga yetganda esa peshanani ushlaymiz. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, insonda ish topa olmaslik xavotiri 25-30 yoshlarda nihoyatda kuchli bo‘ladi. Demak, yoshlarda sabrsizlik ortib ketayotganida, yuqorida aytganimizdek, jamiyatimizdagi ota-onalarning ham o‘ziga yarasha “hissa”si bor.



Bizdan yoshi nisbatan kattaroq kursdoshimiz bo‘lardi. Uni uzoq yillar o‘qishga kira olmagan bo‘lsa kerak deb o‘ylardik. Aslida, bu oliygohda u ikkinchi marta bakalavr darajasini olish uchun o‘qiyotgan edi. Aytishicha, kollejni bitirgach, tavakkal qilib aniq fanlar yo‘nalishida o‘qishni tanlagan, biroq bu sohani o‘zlashtira olmagan. Xorijiy tillar yo‘nalishi esa aniq fanlarga qaraganda ancha oson edi. Bu kabi holatlar ko‘p uchraydi.

World Happiness Report, ya’ni Xalqaro baxt indeksi tadqiqotlarining asoslaridan biri ham insonning o‘zi istagan sohada erkin va qiynalmasdan faoliyat yuritishi hisoblanadi. Bunda odamlarning o‘z ishi bilan qoniqish darajasi, kasbiy imkoniyatlari va ish joyidagi holatlar chuqur tahlil qilinadi.

> **World Happiness Report, ya’ni Xalqaro baxt indeksi tadqiqotlarining asoslaridan biri ham insonning o‘zi istagan sohada erkin va qiynalmasdan faoliyat yuritishi hisoblanadi. Bunda odamlarning o‘z ishi bilan qoniqish darajasi, kasbiy imkoniyatlari va ish joyidagi holatlar chuqur tahlil qilinadi.**

Tahlillardan kelib chiqadiki, yoshlarda sabrsizlik kuchayayotgani ko‘p jihatdan jamiyatdagi muhitga bevosita bog‘liq. Bir o‘rinda toqatsizlik yoshlarning ilm olish va kasb tanlash jarayoniga tobora singib borayotgani jamiyat uchun xavotirli signal, dedik. Xo‘sh, bu nimasi bilan xavotirli?

Bu, avvalo, ilm-ma’rifatning asrlar davomida harakatlanib kelayotgan karvoniga ziyon yetkazadi. Bir qarashda zarurmasdek tuyulgan, biroq sohalarning ko‘rinmas tayanchi hisoblangan bilimlar hamda kasblarning yo‘qolish xavfi paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, insoniyatning sun’iy axborot manbalariga qaramligini oshiradi. Ya’ni odamlar kasblarni to‘liq o‘zlashtirmay, vazifalarni ana shu manbalar orqali bajarishga ommaviy odatlanadi. Bu o‘z-o‘zidan mavjud bilimlar qiymati pasayishiga olib keladi. Shu jihatlari bilan ham bugun sezilmasdek tuyulayotgan toqatsizlik illati barchamizni hushyorlikka chorlashi lozim.

---

Kelajak bunyodkorlari

# ULARNING BUGUNI ZAVQLI, MUNOSIB TARBIYALASAK — ERTASI QUDRATLI

**— 19 yoshdaman. O‘tgan yilgi xatlovda tadbirkorlikka oid g‘oyamni yoshlar yetakchisiga aytdim, — deydi Mo‘tabar Abdusoliyeva. — Yetakchimiz ota-onam bilan maslahatlashib, fikrimni qo‘llab-quvvatladi. Natijada 33 million so‘mlik imtiyozli kredit olib, bedana parvarish qila boshladim. Mingta bedana sotib oldim. Hozir har kuni 350-400 ta bedana tuxumi sotaman. Xaridorlar uyimizdan olib ketadi. Kunlik daromadim 200-300 ming so‘m atrofida. Hamma ishning o‘ziga yarasha mashaqqati bor. Sohani yaxshilab o‘rganib, harakat qilsa, bedanachilikdan ham yaxshigina daromad topish mumkin ekan. Bu yil tikuvchilik bo‘yicha ham ish boshlamoqchiman.**



Yangi O‘zbekistonda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bandligiga ko‘maklashish, tadbirkorlikka oid g‘oya va tashabbuslarini rag‘batlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilgani, har bir mahallada yoshlar bilan ishlaydigan yetakchilar faoliyati yo‘lga qo‘yilgani bunga yaqqol misoldir. Xususan, mahalladagi yoshlar yetakchilari navqiron avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish, muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

— Yoshlar bilan tizimli ishlash doim dolzarb. Shu bois, yetakchilar har yili o‘z faoliyatini mahalla yoshlari bilan suhbatlashish va ularni xatlovdan o‘tkazishdan boshlaydi, — deydi Jizzax viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig‘i Murodbek Rahmonberdiyev. — Viloyatimizda joriy yil uchun yoshlar xatlovi yakuniga yetkazilmoqda. Jarayonda hududdagi 14-30 yoshli 370 ming yigit-qiz xatlovdan o‘tkazilib, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolari va ehtiyoji o‘rganildi. Bu ularning ijtimoiy faolligini oshirish, hayotdagi o‘rnini belgilash va kelajakdagi rejalarini aniqlash uchun muhim qadamdir.

Xatlov yakunida ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlaridan kelib chiqib, yoshlar uchta toifaga, jumladan, yaxshi o‘qiyotgan, tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyatli, ijtimoiy faol bo‘lgan yoshlar — yaxshi, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol yoshlar — o‘rta hamda davlatning g‘amxo‘rligi va e’tiborini kutayotgan, ko‘makka muhtoj yoshlar ahvoli og‘ir guruhga ajratiladi. E’tiborlisi, uchinchi toifadagi yoshlar — viloyatdagi rahbarlarga biriktirilmoqda. Bu ham samara beryapti.

Yoshlar balansi shakllantirilib, “yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi. Shu asosda yoshlarning muammolarini hal qilish va hayotini yaxshilash uchun aniq harakatlar rejasi belgilanadi.

Misol uchun, Sharof Rashidov tumani Nurafshon mahallasidagi Abdusoliyevlar oilasida 4 nafar yosh istiqomat qiladi. O‘tgan yili xatlov jarayonida oilaning uch farzandiga xizmat ko‘rsatilgan.

— Bu yilgi xatlov jarayonida o‘tgan yili ko‘rsatilgan yordamning ijobiy natijasini kuzatdik, — deydi “Nurafshon” MFYdagi yoshlar yetakchisi Yusuf Abdurahmonov. — Mazkur oiladagi o‘g‘illar chorvachilik bilan shug‘ullansa, qizi Mo‘tabar Abdusoliyeva bedanachilikdan daromad topyapti. Mo‘tabar misolida davlatimiz tomonidan yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor samara berayotganidan xursand bo‘laman. Uning ishini, daromadini ko‘rib, mahallamizning ko‘p qizlarida ham tadbirkorlikka qiziqish ortdi.

— Hududda 1000 ga yaqin yigit-qiz istiqomat qiladi. Mahallamiz yettiligi bilan hamkorlikda yoshlarning muammosini o‘rganib, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli kredit va subsidiya olishi, ishga joylashishida amaliy yordam beryapmiz. O‘tgan yili yoshlardan 38 nafarini viloyatimizdagi avtomobil zavodlariga ishga joylashtirdik, 68 nafariga esa yer ajratdik. Hozir ular dehqonchilik bilan shug‘ullanib, daromad topmoqda. Joriy yilda yana 100 nafar yoshga yer beriladi, — deydi Sharof Rashidov tumanidagi G‘ozg‘ontepa mahallasi yoshlar yetakchisi Bobomurod Ochilov. — Yaqinda “Yilning eng faol mahalla yoshlar yetakchisi” respublika tanlovida yoshlar bilan ishlash, bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka ko‘maklashish yo‘nalishida uchinchi o‘rinni oldim. Buni mahallamiz yettiligi, yoshlarimizning ham yutug‘i deb bilaman. Oldin mahallamizda migrantlar ko‘p edi. Ular bilan onlayn suhbatlashib, vatanga qaytarish, ish bilan ta’minlash, imtiyozli kreditlar ajratib, tadbirkorlikka jalb qilish choralarini ko‘ryapmiz. Natija yomon emas, ko‘plab vatandoshlarimiz qaytdi. Misol uchun, yaqinda Rossiyadan ikki yigit qaytgandi, ularga kredit ajratdik. Hozir biri sartaroshlik qilyapti, ikkinchisi tadbirkorlik bilan shug‘ullanyapti. Ikkoviyam yaxshigina daromad topyapti. Qaytganidan xursand. Bundan tashqari, xorijdan qaytib kelgan ko‘plab yoshlarga yer berildi. Nasib qilsa, ular bahorda dehqonchiligini boshlaydi. Mahallamiz tuman markazidan olisda joylashgan. Chet tili, kasb o‘rganish uchun yoshlarimizning tuman, viloyat markaziga borishiga to‘g‘ri keladi. Ushbu ovoragarchiliklarga barham berish uchun mahallamiz binosi atrofidagi bo‘sh joyda yoshlarni xorijiy tillar va kasblarga o‘rgatish markazini ochmoqchimiz.



Karomat Shodiyeva e’tibor va g‘amxo‘rliklardan bahramand bo‘lgan yoshlardan biri. Aytishicha, “Yoshlar daftari”ga kiritilishi davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamlardan foydalanish imkonini bergan.

— Mahallamizdagi yoshlar yetakchisi uyimizga kelib, sharoitimni o‘rganib, “Yoshlar daftari”ga kiritib, subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berdi. Tikuvchilik faoliyatini yo‘lga qo‘ydim. Asosiy mijozlarim mahallamizdagi xotin-qizlarimiz. Daromadim yaxshi. Kelajakda shogirdlar tayyorlab, faoliyatimni kengaytirmoqchiman. Fursatdan foydalanib, biz, yoshlarga mana shunday sharoitlarni yaratib bergan Prezidentimizga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman, — deydi Karomat.

Karomatning muvaffaqiyatli faoliyati yoshlarga davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlarning samarali ekanini ko‘rsatadi. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va har tomonlama qo‘llab-quvvatlov yoshlarning o‘z biznesini boshlashi, oilaviy tadbirkorligini tashkil qilishi va daromad topishida muhim omil bo‘lmoqda. Shuningdek, yigit-qizlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, turli sport to‘garaklariga jalb etish ham yoshlar yetakchisining vazifasiga kiradi.

— Besh tashabbus olimpiadasi loyihasi orqali viloyatda 500 mingdan ziyod yoshning vaqtini mazmunli o‘tkazish reja qilingan edi, — deydi Jizzax viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig‘i Murodbek Rahmonberdiyev. — Mahalla yoshlari o‘rtasidagi olimpiada doirasida o‘tkaziladigan musobaqa va tanlovlarda ishtirok etish uchun 413 mingdan ortiq yigit-qiz 5tashabbus.uz sayti orqali ro‘yxatdan o‘tdi. Olimpiada doirasidagi barcha tanlov va musobaqalarda jizzaxlik 417 ming 176 yosh ishtirok etdi. Bellashuvning respublika bosqichida jizzaxlik 21 yigit-qiz sovrindor bo‘ldi. Shundan 1 nafari oltin, 9 nafari kumush, 11 nafari bronza medalga loyiq ko‘rildi. Ularning mahallasida 27 ta workout, 15 ta universal, 9 ta streetbol-workout maydonchasi qurilib, yoshlar ixtiyoriga topshirildi.

Besh tashabbus olimpiadasida eng ko‘p Jizzax shahri va G‘allaorol tumanidagi yoshlar g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Misol uchun, G‘allaorol tumanidagi “Mirzabuloq” QFY yoshlari shu vaqtga qadar sportning besh turidan mamlakatda chempionlikni bermay kelmoqda.

G‘allaorol tumani Mulkush mahallasidagi workout maydonchasi hamisha yoshlar bilan gavjum. Besh tashabbus olimpiadasida shashka-shaxmat bo‘yicha 22-27 yosh toifasida ishtirok etib, birinchilikni qo‘lga kiritgan Go‘zal Bekbo‘tayeva qishloqdagi o‘g‘il-qizlarni yangi chempionlik uchun tayyorlamoqda.

— Birinchi o‘rinni olganim uchun mahallamizda workout maydonchasi qurib berildi, — deydi Go‘zal Bekbo‘tayeva. — Ushbu maydonchadan nafaqat maktabimiz, balki butun mahallamiz foydalanadi. Hozir yoshlar shashka-shaxmat bilan birga yengil atletika, kurashga ham qiziqyapti. Ushbu g‘amxo‘rlikka javoban biz ham xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lib, vatanimiz bayrog‘ini yuksakka ko‘tarmoqchimiz.

Yoshlar davlat qudratini belgilaydigan hal qiluvchi kuchdir. Mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig‘ini ana shunday navqiron avlod tashkil qiladi. Davlat g‘amxo‘rligini his etib, undan bahramand bo‘layotgan yigit-qizlar hayotda o‘z yo‘lini topib shakllanmoqda.

**Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Nigoh

**Bugun raqamli makon har birimiz uchun kundalik hayotimizning ajralmas qismiga, internet, onlayn kommunikatsiya vositalari esa aloqaning asosiy yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Raqamli makonda hozir hamma targ‘ibotchi. Kimdir ziyo, kimdir qabohat ulashmoqda. Ushbu jarayon raqamli makonning ma’naviyati va axloqiy holatlarini dolzarb mavzularda biriga aylantirdi, desak ham bo‘laveradi.**





# RAQAMLI TARG‘IBOT

## MA’NAVIY QADRIYATLARGA TAYANADI

**Mahfuza YULDASHEVA,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
TDIU dotsenti, “Ma’rifat”
targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi**

Axborotlashgan dunyoda kontent targ‘ibotlar va ulardagi ma’naviyat masalasi haqida so‘z ketar ekan, ulashilayotgan kontentlarning ahamiyati va uni tayyorlovchilarning mahsulotni tayyorlashga qay tarzda yondashib, qanday manfaatlarni ko‘zlab global tarmoqqa joylashtirayotganini tushunishimiz o‘ta muhim.

Xo‘sh, nima uchun raqamli targ‘ibot deyapmiz? Chunki axborotni ulashuvchi uni ommalashtirishni istaydi. Demak, ijtimoiy tarmoqqa joylanib, ommalashishi uchun uzatilayotgan axborot — targ‘ibot quroli.

Barchamiz qaysi axboriy mahsulot zararli-yu qay biri foydali ekanini biladigandekmiz go‘yo. Aslida, unday emas. Raqamli platformalar bilan munosabat qilish ham raqamli savodxonlikni bilish, yuqori darajadagi salohiyat, ilm va bilim demakdir. Buning uchun uzatilayotgan kontentlardagi raqamli targ‘ibotning mazmuni hamda shaklining axloqiy va ma’naviy jihatlarini ko‘rib chiqishimiz zarur.

**Raqamli targ‘ibotning asosiy prinsipi haqiqatni va aniq ma’lumotni taqdim etishdan iborat bo‘lishi kerak.** Ijtimoiy tarmoqlarda bugun turli tomonga yo‘naltirishlar yoki reklama materiallarida chalg‘itishlar va mijozlarning his-tuyg‘usini manipulyatsiya qilish holatlari avj olgan. Internet muhitida doimiy ravishda foydalanuvchilarga xato, chalg‘ituvchi yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etib borilishi jamiyatda ishonchsizlik va ruhiy stressni keltirib chiqaradi.

**Ma’naviy mas’uliyat eng asosiy jihatlardan bo‘lib, raqamli targ‘ibot jarayonida insonlarning qadriyatlariga hurmat bilan yondashish muhim ahamiyatga ega.** Ya’ni millati, irqi, dinidan qat’i nazar, inson shaxsiyatini kamsitmasdan, uning o‘ziga xosligini e’zozlaydigan va qadrlaydigan mazmundagi mediamahsulotlar iste’molchisi bo‘lishimiz kerak. Bu nainki raqamli platformadagi kontentlar sifati, balki insonning ham axboriy didi yuqori ekanidan dalolat beradi.

Axborot makonida foydalanuvchilarga qimmatli mahsulot yoki xizmatni targ‘ib qilishda ham milliy va axloqiy me’yorlar saqlanishi jamiyatga va auditoriyaga nisbatan hurmat hissi shakllangani belgisidir.

**Bugun raqamli platformada asosiy muammolar sifatida ko‘rilayotgan holatlardan biri shaxsiy huquq hamda erkinliklarning qadrsizlanishi va milliy, axloqiy qadriyatlar tanazzulidir.** Har bir fuqarodagi huquqiy mas’uliyat va javobgarlik hissi internet olamida foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ya’ni ularning shaxsiy hududini oyoqosti qilmaslikni talab etadi. Ammo, ming afsuski, bugun oila ichida hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarni ijtimoiy tarmoqlarga sizdirish orqali insonlar ongida oila deb atalmish qadriyatlarimiz qo‘rg‘oniga tosh otish holatlari keskin ko‘paymoqda.

**Ma’naviy yuksaklikka erishish uchun videokontentning har birida ham jamiyatning, ham shaxsning huquqlariga, shuningdek, foydalanuvchilarning maxfiylik huquqiga rioya qilinishi lozim. U hatto zaruriy shartlardan biri bo‘lishi kerak.**

Raqamli makonning yana bir muhim jihati foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va maxfiyligini ta’minlashdir. Afsuski, bugungi zamonaviy texnologik imkoniyatlardan noo‘rin foydalanuvchi shaxslar shaxsiylik va maxfiylikni ta’minlash dasturlariga buzib kirib, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni ochiqlab, kiberterrorchilik harakatlarni sodir etmoqda.

Integratsiyalangan internet xizmatlari va platformaga o‘z shaxsiy ma’lumotlarini taqdim etayotgan har bir inson bu ma’lumotlarning qachon va qanday ishlatilishini bilishga haqli. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini ro‘yxatga olish va ularni tezda qayta ishlash huquqi ham muhim. Internetdagi shaxsiy ma’lumotlarga nisbatan beparvolik katta qiyinchiliklar, jumladan, xakerlik hujumi, shaxsiy hayot buzilishi va anonimlikning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Raqamli makonda xavfsizlik, texnik masalalar qanchalik muhim bo‘lsa, axboriy makonning axloqiy jihatlari xavfsizligi ham shunday ahamiyatga ega.

> **“ Ma’naviy mas’uliyat eng asosiy jihatlardan bo‘lib, raqamli targ‘ibot jarayonida insonlarning qadriyatlariga hurmat bilan yondashish muhim ahamiyatga ega. Ya’ni millati, irqi, dinidan qat’i nazar, inson shaxsiyatini kamsitmasdan, uning o‘ziga xosligini e’zozlaydigan va qadrlaydigan mazmundagi mediamahsulotlar iste’molchisi bo‘lishimiz kerak. Bu nainki raqamli platformadagi kontentlar sifati, balki insonning ham axboriy didi yuqori ekanidan dalolat beradi.**



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

2019-yilda “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi, 2021-yilda mazkur qonunga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qabul qilingan qonunlar aynan raqamli platformadagi jarayonlarning qonunchilik jihatlarini mustahkamlaydi. Bugungi tezkor jarayonda shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish bo‘yicha qonunlar takomillashishi kerak. Ularni aniqroq va foydalanuvchilarning huquqlariga to‘liq rioya qiluvchi etib yoki boshqa qayta ko‘rib chiqish vaqti yetdi. Axborot manipulyatsiyalarini aniqlash, ya’ni insonlar ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi kontentga qarshi nazoratni kuchaytirish lozim.

**Raqamli biznes va reklama sohasida ham bugun axloqiy standartlar bo‘lishi shart. Ayrim ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan ba’zi reklamalarda milliyligimizdan og‘ish holatlari ko‘p uchrayapti.** Raqamli reklama va marketing sohasidagi axloqiy me’yorlar reklamalardagi manipulyatsiyalarning oldini olishga, shuningdek, foydalanuvchilarning ishonchini saqlashga yordam beradi.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha davlat va xususiy sektor, fuqarolik jamiyatining uzviy hamkorligini mustahkamlash va yo‘lga qo‘yish jamiyatda kibermadaniyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Global tarmoqning bizni mamnun qiladigan ustunliklari ko‘p. Shulardan biri ta’limning onlayn shakllari yuzaga kelganidir. U masofa va xarajat qisqarishi bilan birga ta’lim olishning qulay usulini taqdim etadi.

**O‘zgarib borayotgan geosiyosiy olamda masofaviy ko‘rinishda tashkil etilayotgan o‘quv kurslari nazorati masalasi ham insonni jiddiy xavotirga soladi. Til, din, madaniyat o‘rgatish negizida o‘quv kurslari asoschisi nimani ko‘zlamoqda, radikallashuv, shovinistik agressiv harakatlar, “ommaviy madaniyat”ni ommalashtirish emasmi?** Ularning raqamli targ‘ibot usullaridan foydalanish darajasi yuqori ekani sabab ertaga biz yaqinlarimiz, yoshlarimizni ularning qo‘liga berib qo‘ymaymizmi, degan xavotirli savollarni o‘zimizga berishimiz va ijtimoiy nazoratni kuchaytirishimiz kerak.

Shu o‘rinda maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab, oliy ta’limda farzandlarimizga texnologik bilimlar bilan birga axloqiy qoidalarni ham singdirib borishimiz lozim. Chunki raqamli makon yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda katta ahamiyatga ega. Internet va ijtimoiy tarmoqlar kundalik xabarlar manbai bo‘libgina qolmay, insonlarning fikr va his-tuyg‘ularini ham shakllantirib ulgurgan. Tarmoqlarning insonlarga, ularning psixologiyasi va ijtimoiy munosabatlariga ham ta’sir etib borayotganini ko‘rib turibmiz. Bu o‘rinda o‘quvchilarga internet xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, yolg‘on axborotlardan qochish va shoshmashosharlikning xavflari haqida maxsus darslar tashkil etilishi juda ham muhim.

Shuningdek, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish uchun mutasaddi tashkilotlar bilan doimiy trening va vebinarlar o‘tkazilishi lozim. Raqamli madaniyatni shakllantirish, ya’ni jamiyatda axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni internet muhitiga muvofiqlashtirishga qaratilgan ma’naviy ta’lim tizimini joriy etish zarur. Bu tizim yoshlarga internetda halollik, ishonch, so‘z erkinligi va haqiqiy axborotlarni tarqatishni o‘rgatishni o‘z ichiga olishi kerak.

Buning uchun har bir raqamli kontent, reklama yoki axborot foydalanuvchisiga, ayniqsa, yoshlarga ma’naviy hamda axloqiy jihatdan ishonchli ma’ruzalar taqdim etilishi lozim. Shu bilan birga, internetdagi xavf-xatarlar, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish kabi axloqiy me’yorlar haqida tushunchalar berish zarur.

Raqamli makonda barcha ijtimoiy guruhlarning tenglikka asoslangan ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofiq. Masalan, **ayollar, nogironligi bor shaxslar, internetga ulanish imkoniyati bo‘lmagan, olis hududlardagi fuqarolar uchun maxsus dastur va resurslar yaratish ham raqamli targ‘ibot yo‘lidagi muhim jihatlardan.**

Bugun raqamli makonning imkoniyati keng, taqdim etilayotgan kontentlarni ko‘rish uchun foydalanuvchilar tanlovi mavjud. Zamonaviy texnologik jarayonlar bir joyda depsinib turmayapti. U taraqqiyot manzili sari ildam bormoqda. Shuningdek, innovatsion yangiliklar, imkoniyatlar bilan boyitilyapti. Agar inson texnologiyani boshqara olmasa, texnologiya insonni boshqaradi.

Raqamlashtirilgan dunyo, raqamlashtirilgan ong, sun’iy idrok bugun bizni ijobiy ma’noda xavotirga solishi lozim. Bu makonga yuksak tafakkur va madaniyat bilan o‘z tanloviga ega foydalanuvchi, ixtirochi sifatida kirib borishimiz kerak. Bugun zamonaviy texnologik imkoniyatlar — sun’iy intellekt, robotlar dunyosi va boshqa keng tarzdagi innovatsion yangiliklarni jamiyatning bir qismi ma’qullasa, ikkinchi qismi salbiy qabul qiladi. Raqamli makonning ma’naviy asoslari, axloqiy, etikaviy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi kelajakda biz uchun yangi dunyoning ishonchli va barqaror asosini yaratishi mumkin. Insonlar internetdan yaxshi maqsadda foydalansa, shubhasiz, raqamli makonning ma’naviy rivojiga xizmat qiladi.

Yangiliklarni butun insoniyatga tezkor taqdim etayotgan texnologiyaning keskin o‘sish sur’atini inobatga olgan holda ma’naviy targ‘ibot masalalariga ham yangicha — **“raqamli ma’rifat”** tamoyili asosida yondashuv zarur. Bunda fuqarolar va jamiyatni ijobiy rivojlanishga undaydigan, uzatilayotgan har bir mediamahsulotga muqobil tahliliy munosabatlar uchun axloqiy, milliy qadriyatlarimiz ustuvor raqamli targ‘ibot usullaridan keng foydalanish, ularni taqdim etish maqsadga muvofiq.

Raqamli makonning ma’naviy yuksalishi faqat texnik muammolarni hal qilish emas, balki jamiyatni yaxshilash, insonlarning munosabatlari, axloq va madaniyat qoidalarini raqamli axborot vositalariga moslashtirishdan iborat. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, kelajakda raqamli makonning ma’naviy va axloqiy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda internetning keng tarqalishi va raqamli makonning rivojlanishiga nazar solsak, **2024-yilda internet foydalanuvchilari soni 20 million kishiga yetgan. Bu mamlakat aholisining 70 foizdan ortiq qismini tashkil etadi.** Ya’ni har uchinchi o‘zbekistonlik internet foydalanuvchisi bo‘lib, yoshlar orasida internetga ulanish yuqori sur’atda o‘sgani qayd etilmoqda. **16-24 yoshli o‘quvchilar va yoshlar orasida internetdan foydalanuvchilar soni ham deyarli 70 foiz atrofida.** Bu raqam jamiyat yosh avlodining raqamli makonda faolligini ko‘rsatadi.

2023-yilda Facebook, Instagram, Telegram va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlarda 15 millionga yaqin o‘zbekistonlik foydalanuvchi faol bo‘lgan. Bu raqamlar jamiyatdagi internetga ulanish ko‘rsatkichi va foydalanuvchilarning o‘zaro aloqasini bildiradi. Yuqoridagi tahlillardan O‘zbekistonda raqamli makonning ma’naviyati va axloqiy asoslari yildan yilga muhim masalaga aylanib borayotgani ko‘rinadi.

Internet xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya etish, yoshlarga raqamli tarbiya berish va axloqiy standartlarga amal qilish davlat va jamiyat darajasidagi e’tiborni talab qilmoqda. Bugun dunyo miqyosida ham ushbu masalalar dolzarb sanaladi. O‘zbekistonda internetdagi yolg‘on axborot tarqalishiga qarshi kurashish uchun qonunchilik takomillashtirilmoqda.

Jahonda internet foydalanuvchilarini axloqiy va ma’naviy nuqtayi nazardan tarbiyalashga yo‘naltirilgan turli dasturlar mavjud. Masalan, Yevropa va AQSHda internet foydalanuvchilarini yolg‘on axborot va shoshmashosharlikdan himoya qilish bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari tashkil etilgan. O‘zbekistonda bu sohadagi ishlarni yanada kuchaytirish, yoshlarni internetdagi xavf-xatarlardan xabardor qilish va ma’naviy tarbiya masalalarini kuchaytirib borish — bugungi kun talabi.

Raqamli dunyoning o‘ziga xos tartibotlari bor. Har kim o‘zini istaganicha namoyon qilishi mumkin. Ammo unutmaslik kerak: **ijodiy mahsulotlar taqdim etayotganimizda milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan, millat qiyofasiga behurmatlikka yo‘g‘rilgan asarlarni uzatishga hech kimning haqqi yo‘q.** Unutmang, iste’molchilar orasida oila a’zolaringiz, yaqinlaringiz ham bor! Ehtimol, millat ori deb ayni damda sizning axborot uzatish, tayyorlash huquqingizga daxl qilayotgandek ko‘rinayotgandirmiz, **ammo ertaga kelajak avlod raqamli tarix orqali sizning kim va qanday odam ekaningizga baho beradi.** Jamiyatga g‘oyaviy sayoz asarlarni singdirish, o‘zbekona qiyofani yengil-yelpi rollar orqali ko‘rsatish targ‘ibotchisi va muallifi sifatida bir kun yuzingiz yerga qarab qolishi mumkin.

Raqamli targ‘ibotingizni yuksak bilim va tafakkur ustiga quring. Biz undan ma’naviy ozuqa olaylik! Aslida, mana shu yurt fuqarosi sifatida raqamli makon ma’naviyatini rivojlantirishga, jamiyatning barqaror va axloqiy jihatdan mustahkam bo‘lishiga barchamiz mas’ulmiz!



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-146.
36060 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33  Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98  E-mail: info@yuz.uz  Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

O‘zA yakuni — 22:05  Topshirildi — 22:30